

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

LINGUISTIC ANALYSIS OF NASRIDDIN AFANDI'S STORIES (IN THE EXAMPLE OF ETHICAL-AESTHETIC PROPERTIES OF IRONY)

Saodatkhon Abdullayeva*Master's Student**Fergana State University*Email: Saodataabdullayeva2702@gmail.com*Fergana, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Verbal irony, category of humor, laconicism, denotative meaning, connotative meaning.

Received: 20.01.26**Accepted:** 21.01.26**Published:** 22.01.26

Abstract: This article analyzes the ethical and aesthetic properties of irony linguistically using the example of Nasreddin Efendi's anecdotes. The ironic expressions used in the anecdotes, their semantic and pragmatic properties, as well as their role in expressing moral values in folk oral literature are highlighted. The speech actions of the Efendi character show the formation of social relations in society, critical thinking and aesthetic taste.

NASRIDDIN AFANDI LATIFALARINING LINGVISTIK TAHLILI (IRONIYANING ETIK-ESTETIK XUSUSIYATLARI MISOLIDA)

Saodatxon Abdullayeva*Farg'ona davlat universiteti magistranti*Email: Saodataabdullayeva2702@gmail.com*Farg'ona, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Verbal ironiya, kulgililik kategoriyasi, lakoniklik, denotativ ma'no, konnotativ ma'no.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ironiyaning etik va estetik xususiyatlari Nasriddin Afandi latifalari misolida lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Latifalarda qo'llanilgan ironik ifodalar, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari, shuningdek, xalq og'zaki ijodida axloqiy qadriyatlarni ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Afandi obrazining nutqiy xatti-harakatlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, tanqidiy

fikrlash va estetik didning shakllanishi
ko'rsatib beriladi.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАССКАЗОВ НАСРЕДДИНА АФАНДИ (НА ПРИМЕРЕ ЭТИКО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ИРОНИИ)

Саодатхон Абдуллаева

Магистрант

Ферганского государственного университета

Saodatabdullayeva2702@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Вербальная ирония, категория юмора, лаконизм, денотативное значение, коннотативное значение.

Аннотация: В данной статье лингвистически анализируются этические и эстетические свойства иронии на примере анекдотов Насреддина Эфенди. Выделяются иронические выражения, используемые в анекдотах, их семантические и прагматические свойства, а также их роль в выражении моральных ценностей в народной устной литературе. Речевые действия персонажа Эфенди демонстрируют формирование социальных отношений в обществе, критическое мышление и эстетический вкус.

Kirish. Ayrim olimlar estetika faqat go'zallikni o'rganadigan fan desa, boshqa bir guruh olimlar estetikani san'at nazariyasi, deb qaraydilar. Masalan, V. G. Belinskiy: "Ijtimoiy jihatdan faol san'at — estetika predmeti", deydi. N. G. Chernishevskiy estetikani voqelikka, hayotga san'atkorona munosabat deb biladi. Estetik kategoriyalarning tasnifi, tizimlari, turlari va xususiyatlari rus olimlarining qator tadqiqotlarida uchraydi. Ayniqsa, E.G.Yakovlev tomonidan estetika kategoriyalarining tizimlashtirilishi bir qadar qiziqarli va keng qamrovliligi bilan muhim ahamiyatga ega. Estetik kategoriyalardan biri bu kulgilik kategoriyasi hisoblanadi. Ushbu kategoriya estetik tafakkur tarixida chuqur o'rganilgan. Bu haqida ko'plab olimlarning qarashlari mavjud. Jumladan, I.Kant kulgilikning tabiatini latifa misolida ochib berishga harakat qiladi, F.Shiller esa hajviyani voqelik bilan ideal orasidagi qarama-qarshilik orqali ko'rsatib o'tadi. G.Gegel kulgilikning asosini zohiriy ishonch va botiniy to'laqonli bo'lmaganlik orasidagi qarama-qarshilik orqali ifodalaydi. N. V.Gogol esa "Kulgi – bebaho narsa: u jonni ham, mol-mulkni ham olmaydi, ammo kulgi qarshisida aybdor misoli qo'lga tushgan quyonday gap" [1; B. 9] -deya ta'kidlaydi.

Asosiy qism. Kulgi uyg'otuvchi janrlardan bir latifa hisoblanadi. Folklorning latifa janri haqida haqida folklorshunos olimlarimiz quyidagi fikrlarini bildiradi. Jo'rayev latifani doston, ertak, afsona, rivoyat, naql kabi epik janriga mansub, arabcha "lutf" so'zidan olingan bo'lib nozik fikrlash, yaxshilik qilmoq, muruvvat ko'rsatmoq, sharaflamoq [2; B. 215] kabi ma'nolarni bildiradi. "Latifa bayon qilishning kichik hikoya formalaridan... Latifalarning hushchaqchaq, optimizm to'la mazmuniga muvofiq ularning ixcham, xalqchil formasi ham mavjud" [3; B. 18], - deb R. Muqimov latifalarga ta'rif beradi. Sh. Razzaqov esa latifalarni: "kichik, ixcham shaklda chuqur ma'no ifodalaydigan epik janrdir. Epik turning bu janri o'zining tuzilishi, xarakterli xususiyatlari bilan hajviy hikoyalar, masallar, qiziq ertaklardan tamoman farq qiladi" [12; B. 454], - deb yozadi. Latifalar bo'yicha juda qimmatli tadqiqotlar olib borgan F. Yo'ldosheva ham: "Latifa janrining o'ziga xos xususiyatlari qahramondan ustalik va mohirlikni, tafakkurning o'tkirligi va chuqur idrokni, uddaburonlik bilan ish tutishni talab qiladi," - deb o'z fikrlarini e'tirof etsa, O. Sobirov: "Latifalar ... xalq og'zaki prozasining voqeaband, hajman kichik, yumoristik xarakterdagi xalq hajviyoti janrlaridan hisoblanadi" [4; B. 178] - deb latifalarga qarashlarini bildiradilar. 1959-yilda A. Qahhor 54 ta latifani "Afandi latifalari" nomi ostida nashrga tayyorlaydi. Yana xuddi shu yili Odil Rahimiy rus folklorshunosi M. Sheverdin bilan birgalikda birinchi bor o'zbek latifalari to'plamini "Необычайные приключения Насретдина Афанди" (Nasriddin Afandining g'aroyib sarguzashtlari) nomi bilan rus tilida nashrga chiqaradilar. To'plam o'z ichiga 447 ta latifani qamrab oladi. S. Abdulla va A. Rahmat 1960-yilda "Nasriddin Afandi latifalari" nomli to'plam tayyorlaydilar. To'plamda 508 ta latifa mavjud bo'lib, to'plamning o'ziga xosligi shundaki, latifalar nomlanib chiqiladi. To'plam Rustam Komilovning "Nasriddin Afandi" deb ataladigan so'z boshi bilan boshlanadi: "Nasriddin Afandi deganda ham quvnoq, ham hozirjavob, ham eng qiyin muammolarni bir daqiqada hal qilib tashlaydigan donishmand, ham hayotdagi eng oddiy hodisa oldida hayratga tushib soqolini tutamlab hayolga cho'mib ketadigan soddadil odam ko'z oldingizga keladi. Bu odamni butun Sharq taniydi va uni o'ziga yaqin tutadi" [11; B. 3].

Latifa o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va eng ommabop janrlaridan biri bo'lib, qisqa, o'tkir, ko'pincha kutilmagan yakunli yumoristik hikoyalar shaklida namoyon bo'ladi. Arabcha "mutoyiba" (hazil, o'yin) so'zidan olingan bu janr asrlar davomida ijtimoiy tanqid, axloqiy o'git va shaxsiy kamchiliklarni ochib berish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Latifaning asosiy qudrati uning lingvistik mexanizmlarida, xususan, kinoya (ironiya)dan keng foydalanishidadir. Tilshunoslikda kinoya so'zning bevosita ma'nosidan farqli, aksincha yoki yashirin ma'noni ifodalash usuli sifatida qaraladi. Stilistikada kinoya quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo'ladi. Latifada kinoya ko'pincha verbal kinoya (so'z kinoyasi) va vaziyat kinoyasi

shaklida birgalikda ishlatiladi. Kontekstual ziddiyat yaratish: Latifaning ko'p qismida qahramon o'zini yuqori baholaydi, ammo ohirgi jumla yoki javob bu bahoni ziddi bo'ladi. Bu yerda kinoya pragmatik ziddiyat orqali hosil bo'ladi. O'zbek tilshunosligida ironiya(kinoyaning)estetik jihatlarini ochib berishda Nasriddin Afandining nutqi va latifalarini tahlil qilamiz.

(Shahar hokimi Afandining ko'chada bir kishi bilan gaplashib turganini ko'rib so'radi:

— Ha, Afandi, tag'in kimni g'iybat qilib turibsizlar?

Afandi javob berdi:

— Sizni maqtab turibmiz.)

Ushbu latifa – Nasriddin Afandi (o'zbek xalq og'zaki ijodida “Afandi”) guruhiga mansub klassik kinoyali latifalardan biri bo'lib, o'zbek tilidagi verbal ironiyaning (so'zli kinoya) eng yorqin namunalaridan biridir. Bu latifada kinoya verbal ironiyaning sof shaklida namoyon bo'ladi. Verbal ironiyaning asosiy belgilari quyidagilar: Verbal ironiya bu nutqda ishlatiladigan ironiyaning eng keng tarqalgan turi bo'lib, so'zlovchi aytgan so'zlarning leksik ma'nosi bilan asl maqsad (yoki niyat) bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda: Biror fikr aytiladi lekin aslida aksi nazarda tutiladi. Verbal ironiyani tushunish uchun odatda ohang (intonatsiya), yuz ifodasi va vaziyat juda muhim chunki so'zlarning o'zi emas, balki ular qanday aytilgani asl ma'noni ochib beradi. Tahlil semantika, pragmatika, stilistika, diskurs, sotsiolingvistika va nutq madaniyati darajalarini qamrab oladi. Mazkur latifa tilshunoslik nuqtayi nazaridan quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

Semantik jihatdan — qarama-qarshi ma'nolar asosida qurilgan.

Diskursiv jihatdan — hokimiyat va xalq munosabatlarini aks ettiradi.

Sotsiolingvistik jihatdan — xalq tafakkuri va ijtimoiy tanqid ifodasidir.

Leksik-semantik jihatdan “G'iybat”- salbiy baholangan ijtimoiy-amaliy harakat hisoblanadi. “Maqtab turibmiz” jumlasida lug'aviy jihatdan ijobiy bahoni bildiradi. Ammo latifada “maqtab” so'zi o'zining asosiy (denotativ) ma'nosida emas, balki ko'chma, qarama-qarshi (konnotativ) ma'noda qo'llangan. Latifaning kulgili va mazmunli bo'lishi semantik ziddikka asoslangan: g'iybat-maqtab. Bu qarama-qarshilik kinoyaning semantik poydevorini tashkil etadi. Demak, aytilgan ma'no bilan anglashilgan ma'no o'rtasida tafovut mavjud - bu kinoyaning asosiy belgisidir. Kinoya-latifaning markaziy stilistik vositasi hisoblanadi. Kinoya bu yerda bevosita haqorat qilmasdan tanqid qilish, kulgi orqali ijtimoiy baho berish vazifasini bajaradi. Tinglovchi hokimning savoliga oddiy “yo'q” yoki bahona kutadi. Ammo Afandi javobi butunlay teskari yo'nalishda bo'lib bu kutilmaganlik estetik zavq manbai hisoblanadi. Afandining javobi juda qisqa, ammo mazmunan chuqurligi orqali lakoniklik (ixchamlik) hosil bo'ladi. “Sizni maqtab

turibmiz” jumlasida bu lakoniklik latifaning estetik qiymatini oshirgan. Latifadagi ijtimoiy rollar: hokim va Afandi hisoblanadi. Hokim-kuch, nazorat va hukm ramzini anglatadi, Afandi-aql, donolik va xalq ovozi ramzidir. Diskursda kuchli- kuchsiz qarama-qarshiligi mavjud, lekin nutqiy vaziyatda Afandi ustunlikka erishadi. Latifada hokimiyatni ochiqcha emas, bilvosita, yumor orqali tanqid qilinadi. Sotsiolingvistik tomondan latifa xalq og’zaki ijodiga mansub bo’lib, xalqning hokimiyatga munosabatini, adolat va axloq haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Afandi obrazi orqali jamiyatda so’z erkinligi, aqlning kuchdan ustunligi g’oyasi ilgari suriladi. Nutq madaniyati va etik jihatdan esa Afandi tomonidan qo’pol so’z ishlatilmaydi, haqorat qilinmaydi, lekin kuchli axloqiy baho beriladi. Bu yuqori nutq madaniyati va etik me’yorlarga mos tanqid namunasidir. Etik chegaralarga ko’ra kinoya yumshoq va o’ynoqi bo’lsa-da, u mansabdor shaxsni sharmanda qilishi mumkin shu bilan birga, xalq og’zaki ijodida bunday kinoyalar ijtimoiy adolatni ta’minlash vositasi sifatida qadrlanadi. Bu orqali zaif tomon kuchli tarafni masxara qilish imkoniga ega bo’ladi. Estetik jihatdan bu latifa tilning badiiy qudratini ochib beradi. Bir jumlada chuqur ma’no va yumor yaratiladi. Bu o’zbek xalq og’zaki ijodining kam so’z qo’llab ko’p ma’no hosil qilishi bilan ahamiyatlidir. Tinglovchi uchun g’iybat leksemasi orqali salbiy ma’no paydo bo’lishi rejalashtirilsada, lekin birdan “maqtamoq” fe’lining kontekstda anglatgan mazmuni (ijobiy ma’no) ni keltirib chiqaradi. Natijada bu maqtov kinoyani shakllantirib kulgu hosil qiladi. Buni yumorning kognitiv estetikasi deyishimiz ham mumkin. Latifa orqali so’zning kuchi va folklor go’zalligi ochib beriladi. So’z o’yini, qisqa, o’tkir javob, latifani xalq og’zaki san’atining durdonasiga aylantiradi. U nafaqat kuldiradi, balki tilning ijodiy imkoniyatlarini namoyish etadi. Latifa-mansabdor shaxsni masxara qilish orqali jamiyatdagi adolatsizlikni badiiy ifodalaydi, bu o’zbek adabiyotidagi satira an’analariga mos keladi. Bu turdagi latifalar o’zbek tilshunosligida kinoyaning pragmatik-estetik mexanizmini o’rganish uchun juda muhim material hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Nasriddin Afandi latifalari tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega bo’lgan xalq og’zaki ijodi namunasidir. Ushbu latifalarda etik mazmun til birliklari, frazeologizmlar, kinoya, istehzo va metaforik ifodalar orqali yoritiladi. Afandi nutqida xalqona sodda, lo’nda va ta’sirchan til vositalaridan foydalanilishi latifalarning estetik qiymatini oshiradi hamda ularning ommaviy tushunarli bo’lishini ta’minlaydi. Dialogik nutq shaklining ustunligi, qisqa va mazmunli gaplar, so’z o’yinlari hamda yashirin ma’no ifodalari latifalarning badiiy-uslubiy xususiyatlarini namoyon etadi. Tilshunoslik jihatidan mazkur latifalar xalq tilining boy leksik qatlamini, milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarning tilda aks etishini o’rganishda muhim manba hisoblanadi. Ularda axloqiy g’oyalar lingvistik vositalar orqali yetkazilib, nutq madaniyati, pragmatik ma’no va kommunikativ ta’sirchanlik yorqin ifodalanadi.

Shuning uchun Nasriddin Afandi latifalari nafaqat folklor namunasi, balki o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari, uslubiy rang-barangligi va milliy nutq madaniyatini tadqiq etishda muhim tilshunoslik material sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Latifadagi kinoya — bu nafaqat kulgi hosil qiluvchi vosita, balki tilning ko'p ma'nolilik imkoniyatlaridan o'ta samarali foydalanish namunasi hamdir. U leksika, frazeologiya, pragmatika va diskurs tahlilida o'rganilishi mumkin bo'lgan boy material manbai hisoblanadi. O'zbek latifalarida kinoya ko'pincha ijtimoiy adolatsizlik, ikkiyuzlamachilik va o'zini o'ta yuqori baholashni fosh qilish uchun xizmat qiladi, bu esa uni oddiy hazildan ko'ra chuqurroq ijtimoiy-lisoniy hodisaga aylantiradi. Kinoyasiz latifa, bu shunchaki qisqa hikoya. Kinoyali latifa esa, bir zumda ongni harakatlantiruvchi, haqiqatni ochib beradigan kichik til portlashi. Shu sababli o'zbek tilshunosligida latifalarni lingvopoetik va pragmatik tahlil qilish hali ham dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umarov, E., Karimov, R., Mirsaidova, M., Oyxo'jayeva, G. (2010). Estetika asoslari. -Toshkent. 208 b.
2. Jo'rayev, M., Eshonqulov, J. (2017). Folklorshunoslikka kirish. -Toshkent, «Barkamol fayz media» nashriyoti. 180 b.
3. Mirzayev, T., Turdimov, Sh., Jo'rayev, M., Eshonqulov, J., Tilavov, A. O'zbek folklori (2020). Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti. 237 b.
4. Muqimov, R. (1973). O'zbek xalq latifalarida satira va yumor. O'zbek satirasining ayrim masalalari.-Samarqand: SamDU. 18 b.
5. Sobirov, O. (1980). Latifa va loflar. o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.O'qituvchi. 178 b.
6. Razzoqov, Sh. O'zbek xalq ijodida satira va yumor: Filol.fanlari d-ri ... dis.-Andijon. 454 b.
7. Насриддин Афанди латифалари. –Т.: Ўздавадабийнашр, 1960. Б.-3.
8. Сувонкулов, Б.М. (2007). Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадиати: Филол.фан.ном....дисс.-Тошкент. 55 б.